

O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Abdullayeva Parvinabonu Azamatovna

Buxoro xalqaro universiteti,

ikkinchi bosqich magistranti

parvinaabdullayeva33@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola O'zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar va ularning iqtisodiy samaradorligi yoritilgan. Tadqiqotda agrar sektorning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik o'rni, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. O'zbekistonda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, fermer xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, klaster tizimini joriy etish hamda qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish jarayonlari agrar sektor rivojlanishining muhim tendensiyalari sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada paxta-g'alla yetishtirishdan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish, intensiv texnologiyalarni joriy etish va agroteknologik yangilanishlarning ta'siri tahlil qilinadi. Agrar sektorda davlat siyosatining roli, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, investitsiyalarni jalb etish va zamonaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston agrar sektori, agrar siyosat, qishloq xo'jaligi rivoji, agrar islohotlar, yer munosabatlari, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, agroklastlar, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq infratuzilmasi, sug'orish tizimi.

Annotation: This article is devoted to the analysis of the development trends of the agrarian sector of Uzbekistan, which covers the reforms, structural changes and their economic effectiveness in agriculture in recent years. The study substantiates the importance of the agrarian sector in its strategic role in the country's economy, ensuring food security, increasing population employment and expanding export potential. The processes of effective use of land and water resources in Uzbekistan, support of farm activities, implementation of a cluster system and diversification of Agriculture were considered as important trends in the development of the agrarian sector. The article also analyzes the transition from cotton-grain production to the production of products with high added value, the introduction of intensive technologies and the impact of agrotechnological updates. Particular attention is paid to the role of public policy in the agrarian sector, mechanisms of financial support, attracting investments and the development of modern market infrastructure.

Keywords: Agrarian sector of Uzbekistan, Agrarian Policy, agricultural development, agrarian reform, land relations, farms, peasant farms, agrocusters, food security, rural infrastructure, irrigation system.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу тенденций развития аграрного сектора Узбекистана, в которой освещаются реформы, структурные изменения и их экономическая эффективность в сельском хозяйстве за последние годы. В исследовании обосновывается важность аграрного сектора в его стратегической роли в экономике страны, обеспечении продовольственной безопасности, повышении занятости населения и расширении экспортного потенциала. В качестве важных тенденций развития аграрного сектора в Узбекистане рассматриваются процессы эффективного использования земельных и водных ресурсов, поддержки хозяйственной деятельности, внедрения кластерной системы и диверсификации сельского хозяйства. В статье также анализируется влияние перехода от выращивания хлопчатника к производству продукции с высокой добавленной стоимостью, внедрения интенсивных технологий и агротехнологических инноваций. Особое внимание уделяется роли государственной политики в аграрном секторе, механизмам финансовой поддержки, привлечению инвестиций и развитию современной рыночной инфраструктуры.

Ключевые слова: Аграрный сектор Узбекистана, аграрная политика, развитие сельского хозяйства, аграрные реформы, земельные отношения, фермерские хозяйства, крестьянские хозяйства, агрокластеры, продовольственная безопасность, сельская инфраструктура, ирригационная система.

KIRISH

O'zbekiston agrar sektori mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biri hisoblanadi chunki u nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki xalqning bandligi, hududlar barqaror rivojlanishi va eksport salohiyatining oshishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab agrar sohada islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bunda, avvalo, qishloq xo'jaligi yerlari davlat tasarrufida qolgan holda fermer xo'jaliklari tizimi joriy etildi. Keyingi bosqichlarda esa fermerlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, agrotexnologiyalarni keng joriy qilish, sug'orish tizimini modernizatsiya qilish hamda hosildorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi

munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta‘minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi va unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”si ishlab chiqilgan [1].

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i Respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish bilan boshqa soha va tarmoqlardan afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida respublika yalpi ichki mahsulotining 25 %, oziq-ovqat mahsulotlarining 90 % dan ziyodi yaratilmoqda. Agrar soha mamlakatimizning yetakchi sohalaridan biri sifatida nafaqat aholini oziq-ovqat mahsulotlari hamda sanoatni esa xom-ashyo bilan ta‘minlashda, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishda ham muhim o‘rin egallaydi [2].

Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘plab turlarini yetishtirish, ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hamda eksport salohiyatini oshirish borasida katta imkoniyatga ega. Lekin, bu imkoniyatlardan hozircha yetarlicha foydalanilayotgani yo‘q. Mamlakat eksport salohiyatining yuksalishida qishloq xo‘jaligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston joriy yilda xorijiy davlatlarga Davlat statistika qo‘mitasi dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga qiymati 1,0 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi 1,6 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga oshgan [3].

ADABIYOTLAR SHARHI

Agrar sektorning rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi kunda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi va milliy ilmiy adabiyotlarda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda

barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari keng yoritilgan. O'zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalarini o'rganishda ushbu ilmiy ishlarda ilgari surilgan g'oya va yondashuvlar muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, V.A.MkKallum o'zining "Qishloq xo'jaligidagi raqamli transformatsiya: imkoniyatlar va muammolar" asarida qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini asoslab beradi. Muallif raqamli platformalar, aqlli texnologiyalar va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari agrar sektorda resurslardan oqilona foydalanish imkonini kengaytirishini ta'kidlaydi [4]. Ushbu yondashuv O'zbekiston agrar sektorida ham zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

S.H.Kennedy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Uning "Iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish: Barqaror yondashuv" asarida barqaror agrar rivojlanish ekologik omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimligi qayd etiladi. Muallif agrar ishlab chiqarishda resurslarni tejovchi texnologiyalar, suvdan samarali foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashning ahamiyatini asoslaydi [5]. Bu fikrlar O'zbekiston sharoitida suv resurslarining cheklanganligi va iqlim omillarining agrar ishlab chiqarishga ta'sirini hisobga olgan holda alohida dolzarblik kasb etadi.

J.L.Morrisonning ilmiy ishlari agrar boshqaruv va investitsiyalar masalasiga bag'ishlangan bo'lib, u innovatsion yondashuvlar orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, agrar sektorni rivojlantirishda investitsiya muhitini yaxshilash va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega [6]. Bu qarashlar O'zbekistonda agrar sohada amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar va agroklastlar faoliyatini tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rossiyalik olim A.N.Chekmayov qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish sharoitida modernizatsiya qilish masalalarini chuqur tahlil qiladi. Uning asarlarida agrar sohada texnologik yangilanish, ishlab chiqarish tuzilmasini takomillashtirish va ilmiy yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Muallif agrar modernizatsiya jarayonida davlat siyosati va institutsional islohotlarning muhim rolini alohida ta'kidlaydi [7]. Ushbu yondashuv O'zbekiston agrar sektorida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarni ilmiy jihatdan baholash imkonini beradi.

V.I.Nazarenko o'z tadqiqotlarida agrar sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etishdagi muammolar va istiqbollarni tahlil qiladi. Uning fikricha, qishloq xo'jaligida innovatsion faollikni oshirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlari, kadrlar salohiyati va moliyaviy resurslar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash zarur [8]. Bu qarashlar

O'zbekistonda agrar ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish masalalarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.

Mahalliy olimalardan Sh.M.Muxtarova agrar sohada agrobiznesning tutgan o'rnini tadqiq etib, uni qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida ko'rsatadi. Muallif agrobiznes subyektlari faoliyatini rivojlantirish orqali bozor mexanizmlarini kuchaytirish va agrar ishlab chiqarishda raqobat muhitini shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi [9]. Ushbu yondashuv O'zbekistonda fermer va tadbirkorlik subyektlarining agrar rivojlanishdagi rolini tahlil qilishda muhimdir.

J.Farmanov, N.Rimboyeva va F.Qahramonovlarning ilmiy ishlarida mamlakatda agrar siyosatni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari yoritilgan. Mualliflar agrar islohotlar, davlat qo'llab-quvvatlashi va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi qishloq xo'jaligi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab beradilar [10]. Bu tadqiqotlar O'zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalarini davlat siyosati nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

Y.P.O'rinboyeva va O.E.Baxtiyorov agrar munosabatlar va agrobiznes masalalarini tahlil qilib, qishloq xo'jaligida mulkchilik shakllari va xo'jalik yuritish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatib beradilar. Ularning fikricha, agrar munosabatlarning takomillashuvi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [11]. Bu qarashlar O'zbekiston agrar sektorida institutsional o'zgarishlarning rolini yoritishda muhim manba hisoblanadi.

Z.S.Shoxojaeva va Y.Y.Muxammadieva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Mualliflar innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali agrar ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish mumkinligini asoslaydilar [12]. Ushbu yondashuv O'zbekiston agrar sektorida innovatsion rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

O.D.Xusainovning ilmiy ishlarida qishloq xo'jaligida intensiv ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishlari yoritilib, resurslardan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish masalalari ilgari suriladi [13]. Muallifning qarashlari agrar sektorni rivojlantirishda intensiv omillarning rolini chuqurroq anglash imkonini beradi. Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar O'zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalarini ilmiy jihatdan asoslash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilashda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot O'zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va baholashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy yondashuv asosida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida agrar sektor rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash uchun tizimli tahlil

yondashuvi qo'llanildi hamda qishloq xo'jaligida yuz berayotgan tarkibiy va institutsional o'zgarishlar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Statistik ma'lumotlar asosida agrar ishlab chiqarish hajmlari, hosildorlik ko'rsatkichlari va iqtisodiy samaradorlik dinamikasi tahlil qilindi. Shuningdek, vaqt qatorlari tahlili orqali agrar sektor rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar va ularning barqarorligi baholandi.

Tadqiqotda taqqoslash usulidan foydalanilib, agrar sektorning turli davrlardagi rivojlanish xususiyatlari hamda ayrim hududlar kesimidagi farqlar aniqlashtirildi. Analitik va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida agrar siyosat, investitsion faollik, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va resurslardan foydalanish samaradorligining o'zaro ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar tahlili orqali davlat agrar siyosatining sektor rivojiga ta'siri baholandi. Olingan natijalar asosida xulosalar shakllantirilib, O'zbekiston agrar sektorini barqaror rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda agrar sektorda tub burilishlar kuzatilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari bilan ishlab chiqilgan "Harakatlar strategiyasi" va "Yangi O'zbekiston – 2030" konsepsiyasida qishloq xo'jaligi barqaror o'sishni ta'minlaydigan drayver sohalardan biri sifatida belgilab olingan. Bu yo'nalishda asosiy maqsad – agrar sektorni zamonaviy talablar asosida modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga erishishdir.

Bundan tashqari, suv resurslaridan samarali foydalanish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish, melioratsiya ishlarini yaxshilash kabi vazifalar ham agrar siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralmoqda. Agrar sektorning rivojlanishida xalqaro moliya institutlari, jumladan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa donor tashkilotlar bilan hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Ularning investitsiyalari va texnik yordami hisobiga ko'plab agro-loyihalar amalga oshirilmoqda.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining o'sib borayotgani, eksport imkoniyatlarining kengayishi ham agrar sektor oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Masalan, meva-sabzavotchilik va chorvachilikni diversifikatsiya qilish, issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish, organik mahsulotlar yetishtirishga o'tish, ekologik muvozanatni saqlash kabi masalalar bugungi kunning dolzarb yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shuningdek, qishloq hududlarida bandlik va daromadlarni oshirish ham agrar sektor bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, kichik fermer va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish, ularga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va boshqa moliyaviy ko'maklar berish davlat siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Hozirgi bosqichda

agrar sektorni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari sifatida mahsulot yetishtirish hajmining oshishi, yangi texnologiyalarni joriy qilish, yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, eksport geografiyasining kengayishi va qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarishning kuchayishini keltirish mumkin.

O‘zbekiston agrar sektorining so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz (1-jadval):

1-jadval

O‘zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalari¹

Yillar	Asosiy islohotlar va chora-tadbirlar	Hosildorlik va ishlab chiqarish hajmi	Eksport va tashqi savdo tendensiyalari	Texnologik yangilanishlar	Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir
2016 – 2017	Fermer xo‘jaliklari faoliyatini qayta tashkil qilish, yer maydonlarini maqbullashtirish	Paxta va g‘alla yetishtirish hajmi kamaytirildi, sabzavot va bog‘dorchilik kengaydi	Eksportda meva-sabzavot ulushi oshdi	Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish boshlandi	Aholi bandligida fermerlar ulushi ko‘tarildi
2018 – 2019	“Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi” qabul qilindi	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmi 5–6% ga o‘tdi	Eksport hajmi ortdi, yangi bozorlarga chiqildi	Tomchilatib sug‘orish maydonlari kengaydi	Qishloqda daromadlar oshdi
2020	Pandemiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash choralari	Mahsulot ishlab chiqarish barqaror bo‘ldi, ichki ta'minot kuchaydi	Eksport qisqarishiga qaramay meva-sabzavot yetkazib berish davom etdi	Raqamli monitoring tizimlari joriy qilindi	Qishloq aholisi daromadlari barqaror saqlandi

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

2021	Yangi yer-suv siyosati, suv resurslarini boshqarish tizimi isloh qilindi	Hosildorlik oshishi kuzatildi	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti 20% ga ortdi	Tomchilatib sug‘orish maydonlari 2 baravar kengaydi	Yangi ish o‘rinlari yaratildi
2022	“Yangi O‘zbekiston – 2030” konsepsiyasi doirasida agrar islohotlar boshlangan	Organik mahsulotlar yetishtirish boshlanib, issiqxonalar ko‘paydi	Eksport geografiyasi 10 ta yangi mamlakat bilan kengaydi	Smart-texnologiyalar joriy etildi	Aholi daromadlari oshdi
2023 – 2024	Agrar klasterlar faoliyatini kuchaytirish, eksportni diversifikatsiya qilish	Chorvachilik va meva-sabzavotchilik hajmi ortdi	Eksport hajmi 2 baravar oshdi	Raqamli agroteknologiyalar keng joriy qilindi	Qishloq hududlarida bandlik oshdi

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston agrar sektori so‘nggi yillarda izchil rivojlanish tendensiyasini namoyon qilmoqda. 2016–2017 yillardan boshlab paxta va g‘alla maydonlari qisqartirilib, ularga muqobil ravishda sabzavot, meva-sabzavotchilik va bog‘dorchilikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa ichki bozorda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, tashqi bozorlarda esa meva-sabzavot mahsulotlari eksportini kengaytirishga imkon berdi.

2018-2019 yillarda qabul qilingan “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi” agrar sohani tizimli isloh qilish uchun muhim bosqich bo‘ldi. Bu davrda ishlab chiqarish hajmlari 5–6 foizga o‘sd, eksport hajmi ortdi, yangi texnologiyalar, xususan tomchilatib sug‘orish keng joriy etildi. Natijada yer va suv resurslaridan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

2020-yilda pandemiya sharoitida butun dunyo oziq-ovqat ta‘minotida uzilishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston agrar sektori ichki barqarorlikni saqlab qola oldi. Mahsulot yetishtirish hajmi qisqarmadi, aksincha, ichki ehtiyojlarni qondirish uchun qo‘shimcha resurslar safarbar etildi. Eksport biroz qisqargan bo‘lsa-da, meva-sabzavot

eksporti davom etdi. Bu esa agrar sohaning iqtisodiy barqarorlikda tutgan o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

2021-yilda suv resurslarini boshqarish tizimi isloh qilinib, yangi yer-suv siyosati joriy etildi. Tomchilatib sug'orish maydonlari keskin kengaydi, hosildorlik oshdi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 20 foizga ortib, iqtisodiyot uchun qo'shimcha daromad manbalari yaratildi. Bu yil qishloq joylarda yangi ish o'rinlari yaratilib, aholining ijtimoiy barqarorligi mustahkamlandi.

2022-yilda esa agrar sektorda "Yangi O'zbekiston – 2030" konsepsiyasi doirasida yangi islohotlar boshlangan bo'lib, organik mahsulotlar yetishtirish, issiqxona xo'jaliklarini rivojlantirish va smart-texnologiyalarni joriy etish tendensiyasi kuchaydi. Bu esa xalqaro bozorlarda ekologik toza va raqobatbardosh mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish imkonini berdi. Eksport geografiyasi kengayib, yangi davlatlar bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yildi.

2023–2024 yillarda agrar klasterlar faoliyati kuchaytirilib, qishloq xo'jaligida klasterlashgan boshqaruv mexanizmlari amalda samarali natijalar bera boshladi. Chorvachilik va meva-sabzavotchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshdi. Eksport hajmi ikki baravar ortib, mamlakatning xalqaro savdodagi mavqeyi yanada mustahkamlandi. Shuningdek, raqamli agrotexnologiyalarning keng joriy qilinishi qishloq xo'jaligi jarayonlarini samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qildi.

O'zbekiston agrar sektori so'nggi yillarda modernizatsiya, diversifikatsiya va raqamlashtirish jarayonlari orqali rivojlanmoqda. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, organik mahsulot yetishtirish, eksport hajmini oshirish hamda qishloq hududlarda bandlikni ta'minlash asosiy natijalardan hisoblanadi. Shu sababli agrar sektor kelgusi yillarda ham iqtisodiyotning eng muhim tayanch sohalaridan biri sifatida o'z strategik ahamiyatini saqlab qolishi kutilmoqda.

2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda agrar tarmoq mahsulotlari o'sish tendensiyasini namoyon qilgan. Ayrim yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa ham, umumiy o'sish davom etgan. 2024-yilda eng yuqori ko'rsatkichga erishilgan, bu sohaga e'tibor qaratish va uni rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi. Qo'shimcha ma'lumotlar bilan har bir yildagi o'zgarishlarning sabablarini aniqlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida dehqon va tomorqa xo'jaliklari, fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi ularning tarmoq rivojlanishidagi ulushini ko'rsatib beradi(1-rasm).



1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida tarkibiy bo'limlarning ulushi, %da [14]

2020-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 3,8%ni, dehqon va tomorqa xo'jaliklari 68,3%ni, fermer xo'jaligi 27,9% ni tashkil qilgan. 2021 yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi 4,4%ni, dehqon va tomorqa xo'jaliklari 67,4%ni, fermer xo'jaligi 28,2% ni tashkil qilgan. 2022-yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o'sishda davom etgan (4,4% dan 5,2% ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi yana kamaygan (67,4% dan 65,5% ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa o'sgan (28,2% dan 29,3% ga). 2023 yilda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi sezilarli darajada oshgan (5,2% dan 6,9% ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi keskin kamaygan (65,5% dan 61,7% ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa sezilarli darajada oshgan (29,3% dan 31,4% ga). 2024-yilda esa qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o'sishda davom etgan (6,9% dan 7,5% ga). Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining ulushi biroz tiklangan (61,7% dan 62,3% ga), fermer xo'jaliklarining ulushi esa kamaygan (31,4% dan 30,2% ga).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalari so'nggi yillarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar, institutsional islohotlar va innovatsion yondashuvlar bilan tavsiflanmoqda. Qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, balki bandlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda ham muhim rol o'ynamoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, agrar sektor rivojida davlat agrar siyosati, bozor mexanizmlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi hamda xususiy sektor faolligining oshishi yetakchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Agrar islohotlar jarayonida yer munosabatlarini takomillashtirish, fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish, agrobiznes va agroklastlar faoliyatini rivojlantirish muhim natijalarga olib kelmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hali ham dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, suv resurslarining cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi ta’siri va ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi agrar sektor barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, maqola mavzusi bo‘yicha bir qator amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, agrar sektorni rivojlantirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish zarur. Aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlari, raqamli monitoring va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini kengaytirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Ikkinchidan, suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim. Suvni tejoychi texnologiyalarni qo‘llash, melioratsiya tizimini modernizatsiya qilish agrar sektorning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, agrar sohada investitsiya muhitini yanada yaxshilash va xususiy kapitalni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Fermer va agrobiznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni yengillashtirish, kreditlash va sug‘urta mexanizmlarini takomillashtirish ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali innovatsion yondashuvlarning amaliyotga joriy etilishini ta’minlash zarur.

Umuman olganda, O‘zbekiston agrar sektorining rivojlanish tendensiyalari ijobiy yo‘nalishda shakllanmoqda. Ushbu tendensiyalarni mustahkamlash va agrar sohaning raqobatbardoshligini oshirish uchun ilgari surilgan takliflarni izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishini ta’minlash, mamlakat iqtisodiy o‘sishiga munosib hissa qo‘shish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni
2. Berdiqulov Q.G’. O‘zbekiston Respublikasida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanish holati va uning tendentsiyalaridagi o‘zgarishlarni statistik baholash. “O‘zbekiston statistika axborotnomasi” ilmiy-elektron jurnal 2023/1(15) 107 www.statmirror.uz

3. Abdirayimov A.R. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari. Academic Research in Educational Sciences Volume 4 | Issue 1 | 2024 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
4. McCallum W.A. Digital Transformation in Agriculture: Opportunities and Challenges. Oxford University Press, 2019.
5. Kennedy S.H. Climate Change and Agricultural Modernization: A Sustainable Approach. Springer, 2020.
6. Morrison J.L. Innovations in Agricultural Management and Investment. Palgrave Macmillan, 2018.
7. Чекмарёв А.Н. Модернизация сельского хозяйства в условиях инновационного развития. – Москва: Экономика, 2018. 276 с.
8. Назаренко В.И. Инновационные подходы в аграрной сфере: проблемы и перспективы. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. 312 с.
9. Мухтарова Ш.М. Агробизнес как фактор модернизации сельского хозяйства. // Вестник аграрной науки. 2019. №4. С. 15–21.
10. Farmanov J., N.Rimboyeva F. Qaxramonov. Mamlakatimizda agrar siyosatni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2, issue 3. March 2022. С. 1191–1197.
11. O‘rinboyeva Y.P., Baxtiyorov O.E. Agrar munosabatlar va agrobiznes // Экономика и социум. 2024. №4(119)-1. С. 409–413.
12. Shoxo‘jaeva Z.S., Muxammadieva Y.Y. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. volume 2, issue 5.
13. Xusainov O.D. Qishloq xo‘jaligida intensiv ishlab chiqarishning asosiy yo‘nalishlari // «Экономика и социум» ilmiy jurnali, №12(127)-2, 2024. С. 964–966.
14. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti